

SPECIAL ISSUE

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

VOLUME II | ISSUE 3 | MAY-JUNE | 2024

ISSN: 2181-4031



Available online at www.imfaktor.com

ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ- II, НОМЕР 3

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE 3

ТОШКЕНТ – 2024

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

№ 3 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4031-2024-3>

Бош муҳаррир:

Тураев Б.

– фалсафа фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Расулова Д.

– иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Таҳририят аъзолари:

1. Каримов Б. – тарих фанлари номзоди, доцент
2. Ходжаметова Гулчира Илишевна – тарих фанлари номзоди, профессор
3. Ҳайдаров Ўрал Ахмадович – иқтисодиёт ф.б.ф.д (PhD), доцент
4. Мусаев Джамалиддин Камалович – юридик ф.б.ф.д (PhD), доцент
5. Жамолдинов Хумоюн Бахтиёрбек ўғли – юридик ф.б.ф.д (PhD), доцент в.б
6. Узакова Зарина Фуркатовна – социология ф.б.ф.д (PhD), доцент
7. Мамадияров Дилшод Уралович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент
8. Тўраев Шавкат Нишонович – фалсафа фанлари номзоди, доцент
9. Бердиева Гулмира Аминовна – тарих фанлари номзоди
10. Гаипов Жасур Бахром ўғли – иқтисодиёт ф.б.ф.д (PhD)
11. Сохибова Лола Жонибоевна – фалсафа ф.б.ф.д (PhD)
12. Шарипов Дилшод Бахшиллоевич – сиёсатшунос, эксперт
13. Содиржонов Мухриддин
Махамадаминович – социология ф.б.ф.д (PhD)
14. Саттаров Дилшод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент
15. Турақулов Акмалжон Анварович – фалсафа ф.б.ф.д (PhD)
16. Каримов Бозарқул Худдайбердиевич – фалсафа фанлари номзоди

“Фундаментал тадқиқотлар” илмий-амалий журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Мазкур журнал 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун UIF 2023 = 7.5 “импакт-фактор” кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар хорижий мақолалар сифатида тан олинади.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2024 йил.

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

KAYUMOV Kaxramon Nozimjonovich

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

„Ijtimoiy-gumanitar“ fanlar kafedrasini mudiri

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11234800>

KICHIK SHAHARLARNING IJTIMOY INFRATUZILMASINI BOSHQARISHDA IJTIMOIY MUNOSABATLARNING SOTSIAL INDIKATORLARI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekistondagi kichik shaharlarni ijtimoiy infratuzilmasini boshqarishda ijtimoiy munosabatlarning sotsial indikatorlarni yoritib berishga harakat qilingan. Bugungi kunda dunyo aholisining 20%i kichik shaharlarda istiqomad qiladi. Bu o'z navbatida kichik shaharlarda ro'y beradigan ijobiy va salbiy o'zgarishlar jamiyatga bevosita o'z tasirini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda maqolada ko'tarilayotgan masala dolzarblik kasb etadi.

Jamiyat taraqqiyotida sotsial munosabatlar davrlar osha o'zgarib boradi va bu munosabat o'zgarishi jamiyatda turli yechimini topish qiyin bo'lgan muammolarni keltirib chiqirishi mumkin. Albatta bunday muammolarga sotsiologik jihatdan yechim topishda sotsial indikatorlarni aniqlash va ulardan foydalanish orqali muammoga yechim topish imkoniyati tug'iladi. Maqolada aynan shu kabi masalalarga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: kichik shahar, indikator, infratuzilma, ijtimoiy siyosat, insonparvar, status, ijtimoiy-iqtisodiy maqom, ijtimoiy holat.

СОЦИАЛЬНЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ СОЦИАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ В УПРАВЛЕНИИ СОЦИАЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРОЙ МАЛЫХ ГОРОДОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье предпринята попытка осветить социальные индикаторы социальных отношений в управлении социальной инфраструктурой малых городов Узбекистана. Сегодня 20% населения мира проживает в небольших городах. Это, в свою очередь, означает, что положительные и отрицательные изменения, происходящие в небольших городах, напрямую влияют на общество. С этой точки зрения вопрос, поднимаемый в статье, приобретает актуальность.

По мере развития общества социальные отношения меняются с течением времени и это изменение отношения может привести к возникновению проблем в обществе, решение которых трудно найти. Конечно, при социологическом поиске решения таких проблем появляется возможность найти решение проблемы путем выявления и использования социальных показателей. Статья посвящена именно таким вопросам.

Ключевые слова: малый город, индикатор, инфраструктура, социальная политика, гуманизм, статус, социально-экономический статус, социальный состояний.

SOCIAL INDICATORS OF SOCIAL RELATIONS IN THE MANAGEMENT OF THE SOCIAL INFRASTRUCTURE OF SMALL TOWNS

ANNOTATION

This article attempts to highlight the social indicators of social relations in the management of the social infrastructure of small towns in Uzbekistan. Today, 20% of the world's population lives in small towns. This, in turn, means that the positive and negative changes taking place in small towns directly affect society. From this point of view, the issue raised in the article becomes relevant.

As society develops, social attitudes change over time, and this change in attitude can lead to problems in society that are difficult to find solutions to. Of course, in the sociological search for solutions to such problems, it becomes possible to find a solution to the problem by identifying and using social indicators. The article is devoted to such issues.

Keywords: small town, indicator, infrastructure, social policy, humanism, status, socio-economic status, social status.

Kirish

Hozirgi davrda jamiyatshunos olimlar 3 ta ijtimoiy siyosat modellariga e'tibor qaratadilar. Bunda 1-modeliga liberallar tomonidan amalga oshirilayotgan siyosatni kiritish mumkin. 2-modelining tarkibini «davlat arboblari» faoliyati tashkil etib, ular asosan o'zgarishlar davrida davlat, o'tish, ya'ni tranzitiv davridagi kabi rejalashtirish, onalik va bolalikni himoya qilish, bepul sog'liqni saqlash, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish prinsiplariga tayanadi. 3-modeli ushbu sohadagi ustuvor jihatlari va aholining ijtimoiy himoyasiga alohida e'tibor qaratish, davlatda rivojlangan bozor iqtisodiyotini yaratish oliy maqsad emasligini tushuntirish orqali har bir fuqaroning jamiyat oldidagi o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirishi mumkinligini ilmiy-amaliy jihatdan asoslash.

Bunda ijtimoiy siyosatni kichik shaharlarni boshqaruv tizimidagi ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilash uzluksiz paydo bo'luvchi nizolar yechimida aholining fikr va mulohazalarini hisobga olib insonparvar prinsiplarga rioya qilgan holda tegishli vazifalarni hal etish talab etiladi. Ushbu masalada optimal yechimga erishish uchun quyidagilarga alohida e'tibor qaratish muhim hisoblanadi: «birinchidan, ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlarini tanlashda yuzaga keladigan eng muhim deb hisoblangan va keng tarqalgan qarama-qarshiliklarni o'z vaqtida aniqlash; ikkinchidan, ijtimoiy siyosatni insonparvar tamoyillari asosida rivojlantirish; uchinchidan, jamiyatning ijtimoiy holati va farovonligi bilan bog'liq ijtimoiy siyosat ustuvorliklarini oqilona tanlash kerak bo'ladi» [1].

D.Ernazarov to'g'ri ta'kidlaganidek, «ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj tabaqalariga ko'mak berish orqali fuqarolar turmush sharoiti, osoyishtaligini va millatlararo totuvlikni ta'minlashning, islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning kafolati, aholining eng kam daromadli qatlamlariga – yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarga, ya'ni iqtisodiy o'tish sharoitida qiyin ahvolga tushib qolgan fuqarolarga amaliy yordam ko'rsatish ijtimoiy himoya tizimining asosiy yo'nalishi sifatida shakllandi. Manzilli ijtimoiy yordam ko'rsatishning mutlaqo yangi zamonaviy tizimi yaratildi» [2, B.14-15].

Ijtimoiy siyosatni qay darajada shakllantirilganligi ijtimoiy himoyalashning kichik shaharlar infratuzilmasini shakllantirishda qanchalik bo'lishiga bog'langan. Ijtimoiy siyosatning mazmun-mohiyati jamiyat hamda davlat munosabatlari chegarasida aholining ma'lum darajada farovon hayot kechirishini ta'minlash hamda turli aholi qatlamlari o'rtasida tabaqalanishning haddan tashqari chuqurlashuviga yo'l qo'ymaslikka qaratilganligi bilan xarakterlanadi.

Metodologiya

Bugungi kunda davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy islohot asosini aholi daromadlarini oqilona shakllantirish siyosati tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan kichik shaharlarning o'ziga xos xususiyati unda ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalar qay darajada o'zaro bog'lanib ketgani bilan belgilanadi.

Shu bois mutaxassis F.Yormatov ta'kidlaganidek, «O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik va ishbilarmonlikni rivojlantirishdan ko'zlangan strategik maqsad bor edi. Birinchidan, sohani rivojlantirish orqali mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, aholi talab va ehtiyojlarini to'laroq qondirish bo'lsa, boshqa tomondan, kichik biznes xususiy tadbirkorlikni takomillashtirish natijasida mamlakatdagi mavjud ijtimoiy muammolarni hal etish. Kam ta'minlangan aholini ijtimoiy himoyalash, nogironlar, yetimlar, keksa fuqarolarni moddiy jihatdan qo'llash, yoshlar muammolarini hal etish-bularning barchasi tadbirkorlikni rivojlantirish natijasida bajarilishi mumkin bo'lgan vazifalar edi» [3, B.21].

Asosiy qism

«Kichik shaharlar aholisining daromad darajasi bu hudud farovonligining muhim ko'rsatkichi bo'lib, unga qarab har bir fuqaroning moddiy ma'naviy hayoti, ilm olish» [4, B.545], sog'liqni saqlash, dam olish va boshqa talab ehtiyojlarni qondirishi mumkin. Ijtimoiy siyosat kichik shaharlar darajasida mazkur hududdagi amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida shaxslararo munosabatlarning yaxlit kompleksini tartibga solishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar bilan xarakterlanadi.

«Bunday infratuzilmada ijtimoiy sohani rivojlantirish zarurati asosan quyidagilardan iborat: Birinchidan, jamiyatda ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarning uzviy va uzluksiz aloqadorligi; ikkinchidan, davlat va jamiyat miqyosidagi ijtimoiy sohaning yirik shaharsozlik, ishlab chiqarish faoliyati bilan o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'lishi kichik shahar aholisining turmush tarzida ham o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'ladi; uchinchidan, kichik shaharlarda ijtimoiy sohaning nisbatan markazlashganligini kuzatishimiz mumkin»; to'rtinchidan, agar yirik korxonalar faoliyatidan to'xtasa kichik shaharlarda keskin ijtimoiy muammolarni yuzaga kelishi tabiiy; «beshinchidan, "kichik shaharlar mahalliy o'z-o'zini boshqarish sub'ektlari hisoblanmagani uchun ham boshqa katta va o'rta shaharlarga nisbatan huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy maqomi past darajada namoyon bo'ladi». Ayni shu muammolarni hal etish zaruratidan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirish bo'yicha

Harakatlar strategiyasida «hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko'lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan tuman va shaharlarni, avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo'li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish»[6] kabi muhim vazifalar belgilangan edi.

Nazarimizda ijtimoiy siyosatda to'g'ri ustuvor yo'nalishlarning belgilanishi birinchidan, «real voqelikda ularni faol amalga oshirilishi tizimlilik, ko'p qirraligi, polisub'ektligi, ijtimoiy va iqtisodiy siyosatning birligi, joriy va istiqboldagi maqsadlarning muvofiqligini belgilaydi. Ikkinchidan, jamiyat hayotidagi ijtimoiy standartlashuv, asoslanganlik va prognozlanganlik, subsidar mas'uliyat, differensiallashgan yondashuv, resursli ta'minlanganlik ustuvor ahamiyat kasb etadi. Uchinchidan, ijtimoiy siyosatni rivojlantirishda ratsional qaror qabul qilish, yangi innovatsion texnologiyalar asosida ijtimoiy yordamning o'z vaqtida manzilli yetkazilishini ta'minlash, ijtimoiy xizmatlarning barchaga barobar bo'lishi, pullik va bepul ijtimoiy xizmatlar, ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy kafolat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi».

Hozirda ushbu soha quyidagi uch asosiy funksiyani bajaruvchi tizim sifatida namoyon bo'ladi:

- 1) oddiygina ishlab chiqish yoki insonning shunchaki yashash funksiyasi
- 2) moslashuv funksiyasi
- 3) rivojlanish funksiyasi.

Shu boisdan ham D.Ernazarov «Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda uni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish va zamon talablariga moslashtirishda NNTlarning salohiyatidan foydalanish muhim» [7, 14-15] deb hisoblaydi.

Ijtimoiy sohaning boshqa sohalardan farqi unda inson maqsad, barkamol shaxs, individual qobiliyat sohibi sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy sohaning zamonaviy sharoitlarda o'zgarishidan bir qator tendensiyalar kuzatiladi:

- 1) funksional kamchiliklarning saqlanib qolishi;
- 2) ijtimoiy soha va infratuzilmaning nomarkazlashtirish,
- 3) ijtimoiy sohaning restrukturizatsiyasi;
- 4) ijtimoiy soha va uning infratuzilmasi tijoratlashtirilishi;
- 5) ijtimoiy siyosatning muvaffaqiyatli bo'lishi ustuvor yo'nalishlarning to'g'ri belgilanilishi

bilan bog'liq, avvalo, quyidagi omillar:

- a) qarama-qarashi qiziqishlar;
- b) joriy istiqbolli manfaatlar;
- v) iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolat;
- g) aholining iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy himoya;
- d) texnik-iqtisodiy maqsadga muvofiqlik va ekologik xavfsizlik;
- e) pateralistik va milliy qadriyatlar;
- j) shaxsiy va ijtimoiy mulk;
- z) aholining faoliyati va ehtiyojiga oid qiziqishlari va boshqalar o'rtasida balans saqlanishi


talab qiladi.

Ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlarini tanlash kichik shahar aholisi hayotidagi ziddiyatli jarayonlar va tendensiyalar o'rtasida muvozanatni ta'minlash jarayoni bilan bog'liq. Kichik shaharlar sub'ektlari o'rtasida, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolat o'rtasida muvozanatni ta'minlash muhim ahamiyatga ega». Chunki, ishlab chiqarish ishtirokchilarining tengsiz ravishda amalga oshiradigan iqtisodiy faoliyati ularning daromadlari o'rtasidagi ijtimoiy tafovutni yuzaga keltiradi. Natijada bunday tafovut jamiyatdagi ijtimoiy adolat mezonining buzilishiga sabab bo'ladi. Shu bois zamonaviy davr taraqqiyotida kichik va o'rta biznesda iqtisodiy samaradorlikka erishish va aholini ijtimoiy himoya qilishning o'zaro muvozanatini ta'minlash ijtimoiy davlatning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolaveradi.

Shu o'rinda o'tkazilgan tadqiqotimiz natijalariga ko'ra Respublikamizning 7 ta hududda anketa so'rovnoma o'tkazildi. Tadqiqotda jami 1200 ta anketa so'rovnomasidan foydalanilib, o'tkazilgan tadqiqot natijalarini tahlil qilishda 1181 ta anketa yaroqli va 19 ta anketa esa yaroqsiz, deb topildi.


Xususan, so'rovnomada «Sizning kichik shaharlarda onalik va bolalik to'g'risida g'amxo'rlikni kuchaytirish masalasiga munosabatingiz qanday?» deb berilgan savolga respondentlarning 27,7 %i onalik va bolalikni milliy qadriyatlar ruhida kuchaytirish, 26,6 % esa respondent doimiy bandlik, xotirjam hayot onalik va bolalikni muhofaza qilishning kafolati sifatida qayd etgan. Shuningdek, 24,5 % respondent oila institutini yanada mustahkamlash, 16,8 %i esa milliy mentalitet doirasida onalik va bolalikni muhofaza qilishni va eng kam 4 %i respondent javob berishga qiynalishini e'tirof etgan.

Tadqiqot natijasiga ko'ra, respondentlarning aksariyati milliy qadriyatlarni kuchaytirish, doimiy bandlik va oila institutini mustahkamlash tarafdori ekanligi aniqlandi. Bunda respondentlarning 27,7%i nalik va bolalikni milliy qadriyatlar ruhida kuchaytirish, 26,6%i doimiy bandlik, xotirjam hayot onalik va bolalaikni muhofaza qilishning kafolati, 24,5%i oila institutlarini yanada mustahkamlsh, 16,8%i milliy mintalitet doirasida onalik va bolalikni muhofaza qilishni kafolati degan javobni bergan bo'lsa 4,4%i javob berishni hohlamagan. Demak, bu savol orqali ham indikatorlarni aniqlash imkoniyati mavjud, onalik va bolalikni milliy qadriyatlar ruhida kuchaytirishni asosiy indikatorlar sirasiga kiritish mumkin (1 rasm).




1. rasm. «Sizning kichik shaharlarda onalik va bolalik to'g'risida g'amxo'rlikni kuchaytirish masalasiga munosabatingiz qanday?» degan savolga respondentlar javoblari haqida ma'lumot (% hisobida)

«Sizning kichik shaharlarda xususiy tadbirkorlar va jamoat tashkilotlarining aholining nochor toifasiga yordam ko'rsatishdagi ishtiroki masalasiga munosabatingiz qanday?» – deb berilgan savolga respondentlarning 28,2%i davlat idoralari tomonidan nazorat qilinmasa, ularda befarqlik kuchayadi, deb javob bergan bo'lsa, 13,7 % respondent faqat qog'ozda mavjud, amalda esa yo'q, deb qayd etgan. Demak, tahlil natijasiga ko'ra, kichik shaharlarda xususiy tadbirkorlar va jamoat tashkilotlarining aholini nochor toifasiga yordam ko'rsatishdagi ishtirokni qoniqarsiz, deb hisoblash mumkin (2- rasm).



2.3. rasm. «Sizning kichik shaharlarda xususiy tadbirkorlar va jamoat tashkilotlari aholining nochor toifasiga yordam ko'rsatishdagi ishtiroki masalasiga munosabatingiz qanday?» degan savolga respondentlar javoblari haqida ma'lumot(% hisobida).


Keyin respondentlarga navbatdagi savol bilan murojaat qilinganda ularning aksariyati 59,9% faqat yangi ish o'rinlari yaratish orqali «temir daftar»ga kiritilgan oilalar sonini kamaytirish mumkin deb hisoblasa, 36,5% respondent turlicha infratuzilmani yaxshilash va soliqlarni kamaytirish, boqimandalik kayfiyatidan chiqarish, doimiy harakatda bo'lish, bilim va ta'lim maskanlarini ko'paytirish, aholi tafakkurini o'zgartirishga olib kelishini belgilashgan. Demak, xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda kichik shaharlarimizdagi aholining asosiy va dolzarb muammolaridan biri bu ishsizlik masalasidir (3- rasm).



3. rasm. «Sizningcha, kichik shaharlarda moddiy yordam va ko‘makka muhtoj «Temir daftar»ga kiritilgan oilalarning toifasini qaysi yo‘l bilan qisqartirish mumkin deb hisoblaysiz?», degan savolga respondentlarning javoblari haqidagi ma‘lumot (% hisobida)

Respondentlarga «Sizningcha kichik shaharlarda kasalliklarni profilaktika qilish, uni barvaqt aniqlash, patronaj va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha ishlar samaradorligining pastligi muammosiga munosabatingiz qanday?» – degan savolga ishtirokchilarning 45,5%i hududlardagi vrachlar malakasi va hamshiralar salohiyati past, 23,1%i poliklinika va kasalxonalarda tibbiy anjomlar yetishmaydi va eskirgan, 8,4%i esa oylik maoshlari kamligi tufayli kadrlar qo‘nimsizligi mavjud, deb qayd etgan. Demak, xulosa qilib aytganda bugungi kunda ham kichik shaharlardagi tibbiy muassasalar faoliyati va xizmat ko‘rsatish sifati talab darajasida emasligi aniqlandi.


Anketali so‘rovnomada ishtirok etgan respondentlarning yarmidan ko‘pi ya‘ni 51%i bugungi kunda malakali yoshlar asosan katta shaharlarda ishlash va istiqomat qilish uchun xorijda qolib ketyapti, degan fikrga kelishgan. Bundan xulosa qilish mumkin, kichik shaharlar aholisini tashvishga soladigan omillardan biri yosh mutaxassislarni o‘zlari tug‘ilib o‘sgan joylariga yashash va ishlash uchun qaytmay, xorijdagi katta shaharlarda ish qidirib qolib ketish holati mavjudligi aniqlandi. Bunday holatlar, tibbiyot sohasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan omillardan biri hisoblanadi (4-rasm).



4. rasm. «Sizningcha, kichik shaharlarda aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatishning sustligini boisi nimada deb o‘ylaysiz?», degan savolga respondentlarning javoblari haqida ma‘lumot (% hisobida).

Mazkur savolga aniqlik kiritish maqsadida «Sizningcha, kichik shaharlardagi sog‘liqni saqlash tizimi zamonaviy yutuqlardan ortda qolib ketishiga nima sabab deb hisoblaysiz?»–degan savolga javob beruvchilarning 44,2%i tibbiyot xodimlari o‘z malakalarini sifatli va tizimli amalga oshirmay qo‘ydilar, 18,3%i xalqaro malaka oshirish kurslarida ishtirok etmaslik, 13,2%i raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning tibbiyotga joriy etishdagi uzilishlar va kechikishlar, 11,7%i tibbiyotga oid adabiyotlar yetishmasligi, 12,6%i respondentlar esa javob berishga qiynalishini qayd etgan.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda kichik shaharlarda tibbiyot sohasini zamonaviy yutuqlardan ortda qolishining asosiy sababi tibbiyot xodimlarining o‘z malakalarini sifatli va tizimli tarzda oshirmayotganligi, xususan, xalqaro malaka oshirish kurslarida ishtirok etmasligi hisoblanadi (5-rasm).



5. rasm. «Sizningcha kichik shaharlardagi sog‘liqni saqlash tizimi zamonaviy yutuqlardan ortda qolib ketishiga nima sabab deb hisoblaysiz?» degan savolga respondentlarning javoblari haqida ma’lumot (% hisobida).


Albatta, bunday salbiy holatni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan kichik shaharlardagi sog‘liqni saqlash tizimida faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlari o‘z kasbiy majburiyatlariga rioya qilishini ta’minlashda manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiya holatini yuzaga kelishining oldini olish muhim hisoblanadi. Shu bois ushbu masalani o‘rganish maqsadida berilgan savolga respondentlardan 3 dan 1 qismi (35,5%) tibbiyot xodimlarining oylik maoshlarini oshirish, 29,6%i sohada tanish-bilishchilik, qarindosh-urug‘chilik va guruhbozlik illatlarini yo‘qotish, 15,6%i o‘z mansabini suiiste‘mol qilishi, tibbiyot qasamyodiga amal qilmaslik, deb javob berishgan. Bunda asosiy muammo sifatida ularning oylik maoshlari pastligi, tanish-bilishchilik, qarindosh-urug‘chilik, guruhbozlik illatlari, avj olganligi korrupsiya holatlarini yuzaga kelishida asosiy sabab ekanligi kuzatildi (1. jadval)

№	Javob variantlari	Holati	Erkak	Ayol	Jami
1.	Tibbiyot xodimlarining oylik maoshlarini oshirish	Soni	185	217	402
		Ulushi	16,3%	19,2%	35,5%
2.	Zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash	Soni	14	19	32
		Ulushi	1,2%	1,7%	2,8%
3.	Tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik va guruhbozlik illatlarini yo'qotish	Soni	101	234	335
		Ulushi	8,9%	20,7%	29,6%
4.	Mansabini suiiste'mol qilish, tibbiyot qasamyodiga amal qilmaslik	Soni	64	113	177
		Ulushi	5,7%	10,0%	15,6%
5.	Xususiy klinikalarning kamligi yoki yo'qligi	Soni	43	35	78
		Ulushi	3,8%	3,1%	6,9%
6.	Turmush darajasining qimmatliligi	Soni	16	55	71
		Ulushi	1,4%	4,9%	6,3%
7.	Qasamyodiga amal qilmaydi va boshqalar (yozing)	Soni	19	5	24
		Ulushi	1,7%	0,4%	2,1%
8.	Bilmadim	Soni	5	7	12
		Ulushi	0,4%	0,6%	1,0%
Jami:		Soni	447	685	1132
		Ulushi	39,5%	60,5%	100,0%

1. jadval. «Sizningcha kichik shaharlardagi sog'liqni saqlash tizimida faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlari o'z kasbiy majburiyatlariga rioya qilishini ta'minlashda, manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya holatlari yuzaga kelishining oldini olish uchun nimalar qilish zarur deb hisoblaysiz?» degan savolga respondentlarning javoblari haqida ma'lumot (% hisobida)

Albatta, oylik maosh masalasi ko'tarilganda, beixtiyor «iste'mol savatchasi» holatini o'rganish talab etiladi. Shu bois respondentlarga «Siz iste'mol savatchasi to'g'risida ma'lumotga egamisiz?» degan savolga 52,4% respondent iste'mol savatchasi to'g'risida ma'lumotga ega ekanligini e'tirof etgan bo'lishsa, 38,2% esa yo'q, deb javob berishgan. Nazarimizda iste'mol savatchasi to'g'risida kichik shaharlarda istiqomat qiluvchilarning deyarli yarmi umuman ma'lumotga ega emas yoki bu savolga 9,5 % javob berishga qiynalishgan.

Darhaqiqat, shaharlar, ayniqsa, kichik shaharlarda kambag'allikni qisqartirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu bois «Siz kambag'allikni qisqartirishda qaysi omillarga e'tibor qaratish lozim, deb o'ylaysiz?» deb berilgan savolga respondentlarning 36,7%i fuqarolar yaxshi yashashi uchun o'zlari harakat qilishlari kerak, 30,7%i yangi ish o'rinlarini yaratish kambag'allikni qisqartirishdagi asosiy omil sifatida qayd etishgan. 11,4% ishtirokchi zavod va fabrika kabi ishlab chiqarish korxonalarini ochish kerak hisoblasa, 12,9%i esa buni davlat bartaraf qilishi zarur deb uqtirgan. Bizningcha kambag'allikni qisqartirishda mazkur omillar muhim ahamiyat kasb etadi deb ta'kidlaganlar (6-rasm).



2.9-rasm. «Siz kambag'allikni qisqartirishda qaysi omillarga e'tibor qaratish lozim deb o'ylaysiz » -degan savolga respondentlarning javoblari haqida ma'lumot (% hisobida)

«Tadqiqot natijalari tahliliga ko'ra, zamonaviy sharoitda ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlarni belgilash aholi faolligi va iste'molchilari o'rtasidagi qarama-qarshilikni keltirib chiqarishga emas, balki uni oqilona hal qilish, ular orasidan eng ma'qul qaror qabul qilish orqali ijtimoiy muvozanatni topishda muhim ahamiyat kasb etadi». Ushbu vazifaning dolzarbligi aholi farovonligini barqarorlashtirish bevosita real daromadlar o'sishi bilan bog'liqdir. Shu o'rinda aholi daromadlaridan maqsadli foydalanishning 3 ta varianti

- 1) aholining joriy iste'mol darajasini oshirish;
- 2) aholining joriy iste'mol darajasini saqlash;

3) aholi daromadlaridan sarmoya maqsadlarida foydalanish mavjud. Kichik shaharlar infratuzilmasini yaxshilashda dastlabki 2 ta variant ustunlik qilsa-da, hozirda 3-variantni takomillashtirish va uni rag'batlantirish muhim hisoblanadi. Chunki AQSh, Shvesiya, Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya kabi davlatlarning tajribalari aynan shu variantni qo'llab - quvvatlashga qaratilgan.

Shu bois 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish masalasi muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berildi [8].

Ijtimoiy siyosat ustuvor yo'nalishlarini to'g'ri tanlash kichik shaharlar aholisining ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik 7 ta holatga asoslanadi. Xususan:

1) hayotiy qadriyatlar ierarxiyasi umuman aholi uchun qadriyatlar ichida nisbatan muhim ahamiyatga ega bo'lgani oila, oilaviy munosabatlar va bevosita moddiy farovonlik darajasi hisoblanadi;

2) hayotiy pozitsiya;

3) ijtimoiy holat, ehtiyojlarning qondirilishi darajasi;

4) ijtimoiy farovonlik;

5) jamoatchilik fikri;

6) xulq-atvor stereotiplari;

7) ijtimoiy faoliyat darajasi va shakllari. Tadqiqot tahliliga ko'ra, kichik shaharlarda mahalliy aholining mehnat salohiyati to'liq ishlatilmaydi. Aholining tibbiy yordam ko'rsatish xizmatidan noroziligi, bu asosan ulardagi tizim yetarli darajada yaxshi tashkil etilmaganligi va dori-darmonlarning qimmatligi bilan bog'liq. Ta'lim sohasidagi muammolar esa maktablarda moddiy-texnik bazaning eski va nochorligi, umumiy ta'lim sifati pastligi istiqbolni xavotirga soluvchi jihatlardir.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy taraqqiyotda kichik shaharlar infratuzilmasini yaxshilashda ijtimoiy siyosat tamoyillaridan samarali foydalanishda quyidagi jihatlarni inobatga olish maqsadga muvofiq.

- Birinchidan, ijtimoiy siyosatni yuritishda real va potensial maqsadni belgilash va ularni amalga oshirishga erishish.

- Ikkinchidan, ijtimoiy siyosatni rivojlantirishda ratsional faoliyat, ya'ni izchillik, ijtimoiy va iqtisodiy siyosatning o'zaro bog'liqligini ta'minlash.

- Uchinchidan, joriy va kelajakdagi maqsadlarning tizimli va izchilligini muvofiqlashtirishda standartlashtirish, sog'lom raqobat, javobgarlik, individual va tabaqalashtirilgan yondashuv, intellektual resurslar bilan uyg'unlashtirish.

- To'rtinchidan, «amalga oshirilayotgan islohotlarni manzilligida ijtimoiy yordam, ijtimoiy xizmatlardan maqsadli foydalanishga yo'naltirish, bunda pullik va bepul ijtimoiy xizmatlar, ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy kafolatlar, hamda, deklarativlik tamoyili ustuvorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi».

REFERENCES. ИҚИБОСЛАР. СНОСКИ.

1. Kayumov K.N. Kichik shaharlar ijtimoiy infratuzilmasini boshqarishning tarixiy genezisi va sotsial qarashlar evolyusiyasi. // «Ijtimoiy ishning rivojlanishi va global muammolar». «XXI asrda sotsiologiya va ijtimoiy ishning dolzarb muammolari» nomli 6-davriy to‘plam. – Toshkent. 2021. – B.34-40
2. Ernazarov D.Z. O‘zbekistonda davlat ijtimoiy siyosati samaradorligini oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining roli. siyo. F. bo‘y. falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2018. – B. 14-15.
3. Yormatov F.J. O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi: holati, shakllanish jarayoni, rivojlanish istiqbollari (1991-2010 yillar. Janubiy viloyatlar misolida). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: 2010. – B.21.
4. Малые города в социальном пространстве России / А.Ю.Ардалянова, П.В.Бизюков, Р.Г.Браславский. – Москва: Федеральный научно-исследовательский социологический центр Российской академии наук, 2019. – С.545.
5. Kayumov K.N. Kichik shaharlar ijtimoiy infratuzilmasini boshqarishning tarixiy genezisi va sotsial qarashlar evolyusiyasi. // «Ijtimoiy ishning rivojlanishi va global muammolar». «XXI asrda sotsiologiya va ijtimoiy ishning dolzarb muammolari» nomli 6-davriy to‘plam. – Toshkent. 2021. – B.34-40
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. PF-4947-son, 2017 yil 7 fevral. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017 y., 6-son, 70-modda.
7. Ernazarov D.Z. O‘zbekistonda davlat ijtimoiy siyosati samaradorligini oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining roli. siyo. F. bo‘y. falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2018. – B. 14-15.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz» nomli Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi. «Xalq so‘zi», 2021 yil 7 noyabr. №231.

ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР 3

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE 3

«Фундаментал тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz